



2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatida jami **1 780,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.08.2019- yil	01.08.2020-yil	
	Jizzax viloyati	1635	1986	121,5
	Jizzax sh.	731	864	118,2
	tumanlar:			
	Arnasoy	51	53	103,9
	Baxmal	52	73	140,4
	G'allaorol	95	120	126,3
	Sh.Rashidov	292	355	121,6
	Do'stlik	38	58	152,6
	Zomin	99	121	122,2
	Zarbdor	66	92	139,4
	Zafarabod	18	24	133,3
	Mirzacho'l	36	46	127,8
	Paxtakor	64	76	118,8
	Forish	53	61	115,1
	Yangiobod	40	43	107,5

**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**




Ma'lumot uchun: viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh.(43,5 %), Sh.Rashidov (17,9 %) va Zomin (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **75,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **150,4 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari

hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **0,9 %** punktga ko'payib, **4,3 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **54,9 %** i yoki 2019-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **138,4 %**), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **37,0 %**), va Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **79,3%**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **75,8 %** to'g'ri kelib, 2019-yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,2 %** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan **102,2 %** ni tashkil etgan holda **1 348,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,0 %** ni tashkil etdi yoki **355,9 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **94,2 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **39,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 745,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-iyul**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,9 % i yoki **1 457,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

81,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **66,1** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 87,3 % ni tashkil etdi

87,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 054,6** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 78,2 % ni tashkil etdi.

78,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **321,3** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 90,3 % ni tashkil etdi.

90,3 %




**2020-yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Jizzax viloyati	1780,3	101,9	1 442,1
Jizzax sh.	578,2	104,4	456,1
tumanlar:			
Arnasoy	23,3	100,0	18,9
Baxmal	59,6	102,1	48,1
G'allaorol	97,0	102,1	78,6
Sh.Rashidov	474,2	97,9	391,2
Do'stlik	42,6	101,3	34,9
Zomin	98,2	105,8	80,3
Zarbdor	75,6	102,9	61,8
Zafarobod	87,2	102,2	73,0
Mirzacho'l	27,9	104,4	22,5
Paxtakor	101,3	102,4	82,8
Forish	72,0	101,9	58,5
Yangiobod	43,2	102,3	35,4

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3 %** punktga ko'payib, **72,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019-yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga kamayib, **24,4 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **11,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,1 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **87,7 %** (**4,7 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida hammasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,4 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020-yil yanvar-iyul oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Jizzax viloyati	1780,3	1457,7	194,7	127,9
Jizzax sh.	578,2	398,7	92,3	87,2
tumanlar:				
Arnasoy	23,3	23,3	-	-
Baxmal	59,6	52,8	6,8	-
G'allaorol	97,0	90,5	6,4	-
Sh.Rashidov	474,2	415,5	37,1	21,6
Do'stlik	42,6	42,6	-	-
Zomin	98,2	69,3	19,6	9,3
Zarbdor	75,6	75,6	-	-
Zafarabod	87,2	87,3	-	-
Mirzacho'l	27,9	8,7	9,4	9,8
Paxtakor	101,3	83,0	18,4	-
Forish	72,0	67,2	4,7	-
Yangiobod	43,2	43,2	-	-

*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimidabino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax shahrida qayd etildi (ushbu hududda qurilishishlari umumiy hajmining 32,5 % i yoki **578,2** mlrd. so'm), shuningdek, Sh.Rashidov tumanida (ushbu hududda qurilishishlari umumiy hajmining 26,6 % i yoki **474,2** mlrd. so'm), Zomin tumani ham (ushbu hududda qurilishishlari umumiy hajmining 5,5 % i yoki **98,2** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



**Jizzax viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73